



O'ZBEKISTON
FANLAR AKADEMI
TARIX INSTITUTI



UNIVERSITÀ DI NAPOLI
L'ORIENTALE

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI TARIX INSTITUTI**

VA

**ITALIYA RESPUBLIKASI
NAPOLI SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI (UNIVERSITÀ DI
NAPOLI ORIENTALE) O'RTASIDAGI HAMKORLIK KELISHUVI**

**TOSHKENT / NAPOLI
2024**

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti
va Italiya Respublikasi Napoli sharqshunoslik universiteti
o‘rtasida hamkorlik kelishuvi**

1-band. Maqsad

Ushbu kelishuv bundan buyon “tomonlar” deb yuritiladigan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti (direktor, professor Azamat Ziyo) va Napoli sharqshunoslik universiteti (rektor, professor Ro‘berto‘ To‘tto‘li) o‘rtasida o‘zaro ilmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mustahkamlash va rivojlantirishda kerakli vazifalarni amalga oshirish uchun asos bo‘ladi.

2-band. Qo‘llash doirasi

Ushbu kelishuv birinchi bandda ko‘rsatilgan maqsadlarda xizmatlarni amalga oshirishda manfaatdor tomonlar bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti va Napoli sharqshunoslik universiteti o‘rtasidagi hamkorlikning tartib va tamoyillarini qamrab oladi.

3-band. Huquqiy asos

Ushbu kelishuv O‘zbekiston va Italiyaning tegishli qonunchiliklariga asoslangan holda tayyorlangan bo‘lib, tomonlar davlatlari uchun majburiy bo‘lgan xalqaro shartnomani anglatmaydi. Ushbu kelishuvning hech bir qoidasi tomonlar-davlatlar uchun hech qanday huquq yoki majburiyatlarni yuklamaydi.

4-band. Kelishuv doirasida bajariladigan ishlar

Tomonlar

- (1) o‘zaro manfaatlari qo‘shma ilmiy loyihalarni bajarish;
- (2) yozma manbalarni tarjima qilish va nashr etish;
- (3) Tarix instituti uchun Napoli universitetida sharq tillari hamda lotin, italiyan tillari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash;
- (4) birgalikda ilmiy yig‘ilishlar (yig‘in, seminar, davra suhbatlari va boshqalar) tashkil etish;
- (5) ilmiy asarlar va davriy nashrlarni o‘zaro almashish;
- (6) tomonlar olimlarining maqolalarini Tarix institutining “O‘zbekiston tarixi” va Neapl universitetining ilmiy jurnallarida e’lon qilish imkonini yaratish;
- (7) Italiya arxiv, muzey va kutubxonalarida saqlanayotgan, O‘zbekiston (Turkiston/Markaziy Osiyo) tarixiga oid manbalarni aniqlash, ularning ro‘yxatini shakllantirish, ilmiy muomalaga kiritish;
- (8) O‘zbekiston arxiv, muzey va kutubxonalarida saqlanayotgan, Italiya tarixiga oid manbalarni aniqlash, ularning ro‘yxatini shakllantirish, ilmiy muomalaga kiritish;
- (9) Yosh olimlarning “Yozgi o‘qishlar”ini tashkil etishga kelishib oldilar.

6-band. Reja va ijro

(1) Ushbu kelishuv doirasida amalga oshiriladigan xizmatlar tomonlar qatnashuvida tayyorlanadigan qisqa, o'rtalig'i va uzoq muddatli rejalgarda muvofiq tartibga solinadi va ishlab chiqiladi.

(2) Hamkorlik jarayonida yuzaga chiqadigan yangi vaziyatlar tomonlarning qatnashuvida muhokama qilinadi va tuziladigan reja doirasida zaruriy tadbirlar amalga oshiriladi.

(3) Zarurat tug'ilganda, xizmatlarni davom ettirish va rivojlantirish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirishda tomonlar tarafidan qo'shimcha mutaxassislar va texnik yordam ta'minlanadi.

(4) Tomonlar ushbu kelishuvni bajarishdan kelib chiqadigan barcha ma'muriy va moliyaviy masalalarni o'zaro muzokaralar natijasida tuziladigan bitimga muvofiq yuritadilar.

(5) Ushbu kelishuvdan tashqari boshqa masalalar bo'yicha hamkorlik tomonlar o'rtaidagi maslahatlashuvlardan so'ng bajarilishi mumkin.

7-band. Moliyaviy masalalar

Tomonlar ushbu kelishuv doirasida amalga oshiriladigan ishlardan yuzaga keladigan xarajatlarni moddiy imkoniyatlari hamda bo'yusunadigan qonun hujjatlariga muvofiq ravishda tartibga soladilar.

8-band. Kelishuvning amal qilish muddati, bekor qilinishi va o'zgartirilishi

(1) Ushbu kelishuv imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 5 (besh) yil ichida amal qiladi. Agar tomonlardan biri mazkur muddat tugashiga 1 (bir) oy qolganda uni bekor qilish to'g'risida yozma ariza bilan murojaat qilmasa, ushbu kelishuv o'z-o'zidan yana 5 (besh) yil muddatga uzaytirilgan sanaladi.

(2) Ushbu kelishuv tomonlardan birining yozma ogohlantirishi bilan istalgan vaqtida bekor qilinishi mumkin. Bunda kelishuvning amal qilish muddati bildirishnomalar olingan kundan boshlab 1 (bir) oy o'tgach tugaydi.

(3) Tomonlar o'zaro kelishgan holda, ushbu kelishuvning bandlariga o'zgartirishlar kiritishlari mumkin. O'zgartirishlar bu bandning birinchi moddasida ko'rsatilgan asosga mos ravishda haqiqiy deb tan olinadi.

(4) Ushbu kelishuvning bekor qilinishi tomonlar bu borada qaror chiqarguniga qadar davom etib kelayotgan loyiha va boshqa faoliyatlarga ta'sir ko'rsatmaydi.

9-band. Manzillar

(1) Tomonlarning quyidagi ko'rsatilgan manzillari qonuniy bo'lib, ularga yuboriladigan bildirishnomalar haqiqiy sanaladi.

a. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti

Shahrisabz 5-tor ko'chasi, Mirobod / Toshkent – O'zbekiston Respublikasi.

b. Napoli sharqshunoslik universiteti

Palazzo Du Mesnil - Via Chiatamone 61/62 - 80121 Napoli, Italiya

(2) Manzil ma'lumotlari o'zgargan taqdirda, tomonlar 1 (bir) hafta ichida u

haqida bir-birini yozma ravishda xabardor qiladilar. Aks holda, eski manzilga yuborilgan bildirishnomalar haqiqiy sanaladi.

12-band. Ushbu kelishuv .../.../... kuni o'zbek va italiyan tillarida imzolangan, teng darajadagi uch asl nusxadan iboratdir.

Fanlar akademiyasi
Tarix instituti
direktori
professor, doktor
Azamat Ziyo

Napoli sharqshunoslik
universiteti
rektori
professor, doktor
Roberto Tottoli

IL PRORETTORE
Augusto Guarino

